

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI “YASHIL” IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Berdiyeva Aziza G‘anisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi” kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarini “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishda energiya samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilindi. Tadqiqotda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun Green Efficiency Index (GEI) ishlab chiqildi va uning iqtisodiy mazmuni asoslandi. Natijalar energiya sarfi va sof tushum o‘rtasidagi bog‘liqlik korxonalar samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tahlil davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishi aniqlandi. Olingan xulosalar asosida oziq-ovqat sanoatida “yashil” energiya siyosatini kengaytirish va resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, oziq-ovqat sanoati, qayta tiklanuvchi energiya, GEI, resurs tejamkorlik, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В данной статье проанализированы пути повышения энергоэффективности предприятий пищевой промышленности на основе принципов «зеленой» экономики. В исследовании разработан интегральный показатель Green Efficiency Index (GEI) и обосновано его экономическое содержание. Результаты показали, что взаимосвязь между энергопотреблением и чистой выручкой существенно влияет на эффективность деятельности предприятий. В ходе анализа установлено, что внедрение возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий способствует повышению эффективности. На основе полученных выводов предложены практические рекомендации по расширению политики «зеленой» энергетики и рациональному использованию ресурсов в пищевой промышленности.

Ключевые слова: зеленая экономика, энергоэффективность, пищевая промышленность, возобновляемая энергия, GEI, ресурсосбережение, устойчивое развитие.

Abstract

This article analyzed ways to improve energy efficiency in food industry enterprises based on green economy principles. The study developed the Green Efficiency Index (GEI) and justified its economic significance. The results showed that the relationship between energy consumption and net revenue significantly affects enterprise performance. The analysis confirmed that the implementation of renewable energy sources and energy-saving technologies increases efficiency. Based on the

findings, practical recommendations were proposed to expand green energy policies and promote rational resource use in the food industry.

Keywords: green economy, energy efficiency, food industry, renewable energy, GEI, resource efficiency, sustainable development.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, energetika tarmog‘ini rivojlantirish masalasiga keng e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish kabi maqsadlar belgilandi. Mazkur maqsadlar doirasida sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste‘moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish va boshqa bir qancha vazifalar belgilandi[1].

Energetika sohasi iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Bu soha mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu soha ko‘plab ekologik muammolarni, jumladan, atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarini va yirik energetika inshootlaridan keladigan zararli chiqindilarni keltirib chiqaradi. An‘anaviy energiya manbalari, masalan, ko‘mir, neft va gaz-atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarining asosiy manbaidir. O‘zbekiston uchun bu masala ayniqsa dolzarb bo‘lib, energetika sektori yirik ekologik ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Yashil iqtisodiyotning shakllanishi, shu jumladan yashil energetika, bu muammoni hal qilish uchun eng samarali yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Yashil energetika sohasiga o‘tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Energetika sohasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash va atrof-muhitni himoya qilish, har bir davlatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Global miqyosda energetika sektori, xususan, uglerodga asoslangan energiya manbalarining ishlatilishi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishda asosiy qiyinchiliklarga sabab bo‘layapti. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot tamoyillari va yashil energiya yechimlari nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki energetika sohasidagi samaradorlikni oshirish hamda ijtimoiy xavfsizlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Yashil energiyaning ahamiyati ayniqsa O‘zbekiston kabi tabiiy resurslarga boy va geosiyosiy o‘zgarishlarga tez ta‘sir etuvchi mamlakatlar uchun katta o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot shu vaqtgacha iqtisodiyot nazariyasi tarkibi sifatida turli iqtisodchilar tomonidan katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganib kelinmoqda hamda ta'riflanmoqda. Iqtisodchilarning ko'pchiligini fikriga ko'ra iqtisodiyotga hozirgi mavjud ekotizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Lin Margulis fikriga ko'ra mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo'lib, iqtisodiy g'oyalarni ma'lum bir nazariyotchiga bog'liq holda har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, ekologik harakat, tinchlik harakati, yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashtirishga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo'lgan juda boshqacha g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan [2].

Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida "yashil" iqtisodiyot tushunchasi shakllana boshlagan. Ilk bor "yashil" iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotda qo'llanilgan. "Yashil" iqtisodiyot - bu insoniyat va tabiat o'rtasidagi uyg'un o'zaro ta'sirni qo'llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni bir xil qondirishga harakat qiladigan, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot metodologiyasidir.

"Yashil" iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Aholi turmush darajasini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof muhitga ziyon bermasdan ko'paytirib borish lozim. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish lozim [3].

Iqtisodchi olim Karl Burkart "yashil" iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan: qayta tiklanadigan energiya, yashil binolar, barqaror transport, suvni boshqarish, chiqindilarni boshqarish, yerni boshqarish [4].

Global biznesni ifodalovchi Xalqaro Savdo Palatasi (XSP) "yashil" iqtisodiyotni "iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan holda o'zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot" deb ta'riflaydi. 2012-yilda XSP har ikki yilda bir marta konsultatsiya qilinadigan xalqaro ekspertlarning hissalarini o'z ichiga olgan "yashil" iqtisodiyot yo'l xaritasini nashr etdi. "Yo'l xaritasi" va "yashil" iqtisodiyot kontseptsiyasini aniqlashtirish va shakllantirish bo'yicha keng qamrovli va ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni ifodalaydi. U global muammolarga yechim topishda biznesning rolini ta'kidlaydi. U "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun biznes/tarmoq ichidagi va hamkorlikdagi harakatlarga taalluqli quyidagi 10 ta shartni belgilaydi: ochiq va

raqobatbardosh bozorlar; ko'rsatkichlar, buxgalteriya hisobi va hisobot, moliya va investitsiyalar, ogohlik, hayotiy sikl yondashuvi, resurs samaradorligi va ajratish, bandlik, ta'lim va ko'nikmalar, boshqaruv va hamkorlik, integratsiyalashgan siyosat va qarorlar qabul qilish, moliya va investitsiya.

Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarni dolzarbligini yanada oshirmoqda [5].

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda “yashil” iqtisodiyot - bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan.

“Yashil” iqtisodiyotni o'rganayotgan maktablar orasida “yashil” o'sish - atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo'lib, ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o'sishning faraziy yo'lini tavsiflovchi atamadir deb ta'kidlaydilar. U iqtisodiy o'sish ustuvor maqsad bo'lib qolaverar ekan, iqtisodiy o'sishni resurslardan foydalanish va atrof- muhitga salbiy ta'sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi. Shunday qilib, “yashil” o'sish “yashil” iqtisodiyot va past uglerodli yoki barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Yashil rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o'tishdir. “Yashil” o'sish siyosati tarafdorlarining ta'kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan yashil siyosat qayta tiklanadigan energiya, yashil qishloq xo'jaligi yoki barqaror o'rmon xo'jaligi kabi sohalarda bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham “yashil” o'sish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global “Yashil” o'sish instituti (GYAO'I) bu masalaga alohida maxsus bag'ishlangan ishlarida “Yashil” o'sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, yoki COVID-19 inqirozidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko'pincha yashil tiklanish sifatida ifodalaydilar [6].

“Yashil” o'sish tanqidchilari yashil o'sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof- muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o'zgarishini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Tanqidchilar buning o'rniga iqtisodiy o'zgarishlar uchun muqobil asoslarga ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o'sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o'xshash fundamental o'zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot deb qaraydilar.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o'lchash iqtisodiy indeks ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Yashil indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta'sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek qayta tiklanadigan energiya va toza

texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsion oqimlarni o'lash zaruratidan kelib chiqqan [7].

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasini yaxshilashga muayyan ijobiy natijalar olib kelayotganiga qaramasdan mukammal hisoblanmaydi. Ekologiyaning buzilishi, tabiiy kapitalning cheklanganligi va ularning tugab borayotganligi, shuningdek kambag'allik darajasining ortib borishi, oziq-ovqat, chuchuk suv, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligini isbotlovchi holatlar hisoblanadi.

“Yashil” energiya “yashil” iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadigan eng muhim omillardan biridir. Ko'pgina tadqiqotchilar “yashil” energiyani uglerod chiqindilarini kamaytiradigan ekologik toza energiya manbai deb hisoblashdi va “yashil” energiya ishlab chiqarish atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashning maqbul tanlovi ekanligini ta'kidladilar, chunki u gaz, ko'mir va boshqa yoqilg'ilar kabi resurslarga bog'liqlikni kamaytiradi [8]. Eng muhim jihati, qazib olinadigan yoqilg'i iste'molini qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan almashtirish ishlab chiqarish jarayonlarining salbiy ekologik ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bir qator empirik tadqiqotlar “yashil” energiya iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikka ijobiy hissa qo'shishini ko'rsatdi [9].

METODOLOGIYA

“Yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda “yashil” texnologiyalarning oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati va energiya samaradorligiga ko'rsatayotgan ta'siri o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining energiya samaradorligini baholash maqsadida integral ko'rsatkich - Green Efficiency Index (GEI) indeksni ishlab chiqdik. Mazkur indeksni qo'llash zarurati shundan kelib chiqadiki, korxonada faoliyatining samaradorligini faqat bitta ko'rsatkich orqali baholash yetarli emas. Amalda energiya sarfi, resurslardan foydalanish darajasi va iqtisodiy natijalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni yagona tizimda aks ettiruvchi kompleks indikator talab etiladi.

Shu sababli, bir nechta muhim ko'rsatkichlar - mahsulotlarni sotishdan sof tushum, elektr energiyasi sarfi va tabiiy gaz iste'moli asosida umumlashtirilgan indeks shakllantirildi. Mazkur yondashuv korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini ham bir vaqtning o'zida baholash imkonini berdi.

“Green Efficiency Index”, ya'ni “yashil” samaradorlik indeksi quyidagi ko'rinishdagi quyidagi 1-formula asosida aniqlandi:

$$GEI = \frac{Profit}{\omega_1 \cdot Gas_{norm} + \omega_2 \cdot Energy_{norm}} \quad (1)$$

Bu yerda:

Profit - mahsulotlarni sotishdan sof tushum;

Gas_norm - tabiiy gaz sarfining normallashtirilgan qiymati;

Energy_norm - elektr energiyasi sarfining normallashtirilgan qiymati;
 w_1, w_2 - mos ravishda gaz va elektr energiyasining vaznlari.

Mazkur formula iqtisodiy jihatdan “chiqim-natija” yondashuviga asoslanadi. Ya’ni, korxonaning samaradorligi uning olgan foydasi bilan sarflagan energiya resurslari o‘rtasidagi nisbat orqali baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Green Efficiency Index”, ya’ni “yashil” samaradorlik indeksi formulasida keltirilgan vaznlar ω_1 va ω_2 subyektiv tarzda emas, balki iqtisodiy asoslangan yondashuv orqali aniqlandi. Xususan, vaznlar elektr energiyasi va tabiiy gazning mos ravishda 1 birlik narxlariga asoslanib shakllantirildi. Vaznlar yuridik shaxslar uchun 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida yangi ta’riflar amal qilish muddati inobatga olingan holda har yil uchun o‘rtacha energiya narxlari ishlab chiqilib keyin vaznlar hisoblab chiqildi.

1-jadval.

Oziq-ovqat sanoati korxonasida yashil samaradorlik indeksini hisoblashda foydalanilgan ma’lumotlar¹

Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Elektr, 1 kvat soat narxi so‘m	450	519	675	750	967
Tabiiy gaz, 1 m ³ narxi so‘m	660	862	1288	1450	1725
ω_1	0,4	0,4	0,3	0,3	0,4
ω_2	0,6	0,6	0,7	0,7	0,6

2021-2025-yillarda alohida olib tahlil qilingan oziq-ovqat sanoati korxonasining energiya samaradorligi indeksida tebranishlar kuzatildi. Xususan, 2022-yilda energiya samaradorligining yuqori oshishini mahsulot sotishdan olingan foydaning yuqori o‘sishi bilan izohlanadi. 2023-2024 yillardagi pasayish mahsulot sotishdan tushgan sof foydaning 2022-yilga nisbatan pasayishi sharoitida tabiiy gaz sarfining yuqori darajada saqlanib qolishi bilan izohlanadi. 2025-yilda mahsulot sotishdan sof tushum keskin pasaygan bo‘lsa-da gaz sarfining 2024-yildagi 231200 M.m³ kubdan 120 M.m³ kubgacha pasayishi natijasida energiya samaradorligi yuqori darajada saqlanib qoldi (2-jadval).

2-jadval.

Oziq-ovqat sanoati korxonasining yashil samaradorlik indeksi²

Yillar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
GEI	0,255	0,550	0,510	0,251	0,658

Mazkur indeks iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, korxonaning energiya resurslari sarfiga nisbatan mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmini ifodalaydi. Ya’ni, indeks qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonada har bir birlik energiya sarfiga nisbatan shunchalik ko‘proq daromad qilayotgan bo‘ladi. Shu sababli, “Green Efficiency Index”

¹ Oziq-ovqat sanoati korxonasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

² Oziq-ovqat sanoati korxonasining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

ko'rsatkichining o'sishi energiya samaradorligining oshganini, pasayishi esa samaradorlikning susayganini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat sanoati korxonasida energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi korxonaga foydasining oshishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Mazkur bog'liqlik, bir tomondan, elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv resurslari narxlarining oshib borishi sharoitida ularni tejamkor va oqilona ishlatish zaruratining kuchaygani bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan esa, energiya tejamkor va ekologik barqaror texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiruvchi davlat siyosatining yuritilishi bilan izohlash mumkin. Xususan, subsidiya va turli imtiyoz mexanizmlarining qo'llanilishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Natijada, resurslardan samarali foydalanish nafaqat xarajatlarni qisqartirish, balki oziq-ovqat sanoati korxonasining umumiy moliyaviy natijalarini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida "yashil" energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- oziq-ovqat sanoati korxonalarida uchun "yashil" energiyaga sarmoya jalb qilish jarayonlarini soddalashtirish;
- korxonalariga "yashil" energiyani joriy etishi uchun soliq imtiyozlari, grantlar va davlat kafolatlari orqali investorlar uchun qulay muhit yaratish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida "aqli elektr tarmoqlari" tizimi orqali elektr taqsimotini optimallashtirish va yo'qotishlarni kamaytirish;
- oziq-ovqat sanoati uyushmasi tarkibida "yashil" energiya bo'limini tashkil etish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "“O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Margulis, Lynn and Dorion Sagan, 2007, Dazzle Gradually: Reflections on the Nature of Nature, Sciencewriters Books, ISBN 978-1-933392-31-8
3. Towards a green economy in Europe. EU environmental policy targets and objectives 2010-2050. European Environment Agency, Copenhagen, 2013. URL: <https://www.eea.europa.eu/publications/towards-a-green-economy-in-europe>
4. Karl Burkart. In: Neuer Nekrolog der Deutschen. 29. Jahrgang, 1851, 1. Teil, Weimar 2003. p. 428-430.
5. Муминова Э.А. Яшил иктисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида. Иқтисод ва молия илмий журнали 2023 йил 1 -сон. 16-22 бетлар.
6. М.И. Юлдашев, А.Н. Хамдамов, Ф.А. Юлдашев, Ш.И. Қурбонов. “Яшил иқтисодиёт”. Илмий монография - Т.: “Fan ziyosi” нашриёти, 2024 й. 232-бет.
7. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.

8. World Bank Green Energy Report, 2022.
9. Akbarov S. “Energiya va ekologiya: muvozanat sari qadam”, Toshkent, 2021.
10. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining ma’lumotlari.
11. Khakimov Z. A. et al. SUSTAINABLE INNOVATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CLEAN ENERGY: THE PERSPECTIVE OF QUALITY 5.0 MANAGEMENT IN THE FUEL AND ENERGY COMPLEX //Proceedings on Engineering. - 2025. - T. 7. - №. 4. - C. 2293-2300.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**